



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

TURKIYA VA O'ZBEKISTON BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI, ULARDAGI INKLUZIV TA'LIMNING QIYOSIY TAHLILI.

G'ofurova Ziyodaxon Farhod qizi

*Qo'qon Davlat Universiteti boshlang'ich va texnologik ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
409-guruh talabasi.*

Annotasiya: Maqolada O'zbekiston va Turkiya boshlang'ich ta'lim tizimi ulardagi inklyuziv ta'limning tashkil qilinishi, mazmuni, maqsadi va vazifalari qiyosiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Har ikki davlat ta'limidagi o'quv dasturlari, umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, boshlang'ich ta'lim undagi inklyuziv ta'lim sifatini oshirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy hulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston ta'limi, Turkiya ta'limi, inklyuziv ta'lim, pedagogik yondashuv, ta'limdagi farq va o'xshashliklar, maqsad va vazifalar.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda har qanday davlat rivojlanishining muhim omillaridan biri ta'lim tizimi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim asosiy ta'limning birinchi bosqichi bo'lib, bolalarning intellektual, ijtimoiy-psixologik, aqliy va ma'naviy poydevori shakllanishini hisobga olgan holda ta'lim sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ma'daniy –tarixiy yaqinlik, bugungi kunda ta'lim sohasidagi hamkorlikning kuchayishi ushbu ikki davlat boshlang'ich ta'lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, har ikki mamlakatda inklyuziv ta'lim — ya'ni imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birga umumta'lim jarayoniga jalb qilish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonda 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi, Turkiyada esa bu boradagi boy tajriba (Ozel Egitim) ushbu tizimlarning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etishning dolzarbligini belgilaydi.

Turkiya va O'zbekiston talim tizimining tarixiy rivojlanish bosqichlari: O'zbekistonda dastlabki ta'lim tizimi sovet davrida shakllangan bo'lib, 1991-yildan keyin islohotlar boshlandi. Turkiya ta'limi Usmoniylar davrida boshlangan bo'lib, 1924-yildagi Tevhid-I Tedrisat qonuni bilan dunyoviyashtirildi.

O'zbekistonda 12 yillik majburuy ta'lim joriy qilingan bo'lib, undan 9 yili umumiy o'rta ta'lim, 3 yili kasb-hunar yoki akademik litseyda davom ettirilgan. Turkiyada 4+4+4 tizimi amal qilgan bo'lib, 4 yil boshlang'ich, 4 yil o'rta, 4 yil litsey ta'limi bo'lgan.

Turkiya ta'lim tizimida 1997-yildan 8 yillik majburiy ta'lim joriy etilgan bo'lsa, O'zbekistonda 1992-yilda 9 yillik majburiy ta'limga o'tildi. Bu davr mobaynida ta'lim ma'zmuni va sifatini oshirishga qaratildi.

O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimi mustaqillikdan keyin bosqichma-bosqich yangilanib, ayniqsa so'nggi yillarda tub islohotlar joriy etildi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020), Davlat ta'lim standartlari va 2023 yilda joriy etilgan. Milliy o'quv dasturi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

boshlang'ich ta'limning mazmunini belgilovchi asosiy hujjatlardir. Boshlang'ich ta'lim tizimi 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha mo'ljallangan bo'lib, 1-4-sinflarni qamrab oladi va o'quv dasturi o'qish savodxonligi, ona tili va adabiyot, matematika, tabiiy fanlar, ingliz tili, texnologiya, tasviriy san'at, musiqa va jismoniy tarbiya kabi fanlardan iborat. Mazmunning asosiy g'oyasi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, savodxonlik, ijodkorlik, kommunikativ kompetensiyalar va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. O'zbekiston boshlang'ich ta'limida milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, o'zlikni anglash va madaniy merosga hurmat tamoyillari ustuvor o'rin tutadi.

Darslar odatda haftada 5 kun bo'lib, har kuni 4-5 soatdan, bitta dars davomiyligi 45 daqiqa, tanaffuslar 5 daqiqa, tushlik tanaffusi 30 daqiqadan iborat. Ta'lim davlat maktablarida bepul beriladi, va o'quv dasturlari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Turkiya boshlang'ich ta'lim tizimi "Milli Egitim Temel Kanunu" va Milliy ta'lim vazirligining (MEB) standartlari asosida boshqariladi. 4+4+4 tizimi bo'yicha boshlang'ich ta'lim brinchi to'rt yillikni tashkil qiladi. Boshlang'ich ta'lim - 4 yil boshlang'ich maktab va 4 yil o'rta maktab, o'rta ta'lim (Lise) 4 yil bo'lib, boshlang'ich ta'lim mazmuni turk tili, matematika, ingliz tili, jismoniy tarbiya, vizual san'at, musiqa, "Hayot Bilgisi" va boshqa fanlardan iborat. Turkiya o'quv dasturlarida konstruktivizm, faol ta'lim metodlari, interfaol yondashuv, STEAM, o'quvchini markazga qo'ygan pedagogika tamoyillari asosiy o'rinda turadi. Bu tizim o'quvchilarda erkin fikrlash, tanqidiy tahlil, jamoa bilan ishlash, muloqot ko'nikmalari, ijtimoiy moslashuv va fuqarolik tamoyillar belgilangan. O'quv jarayonida o'quvchi mustaqil izlanishga, savol berishga, tajribalar o'tkazishga, atrof-muhitni tahlil qilishga rag'batlantiriladi. Turkiyada raqamli ta'lim platformalari, elektron darsliklar, interfaol taxtalar keng tatbiq qilingan bo'lib, bu jarayon "FATİH Projesi" orqali tizimli ravishda rivojlantirilmoqda.

Turkiya boshlang'ich maktablaridagi dars soatlari haqida asosiy ma'lumotlar:

Dars davomiyligi: 40 daqiqa.

Tanaffuslar: Kamida 15 daqiqa (ayrim maktablarda bu vaqt farq qilishi mumkin, lekin minimal chegara 15 daqiqa).

Tushlik tanaffusi: Odatda 40 daqiqadan 60 daqiqagacha davom etadi. Kunlik dars soatlari kuniga: 6 soat (akademik soat).

Haftasiga: 5 kun, jami 30 soat.

O'zbekiston bilan solishtirganda, Turkiyada tanaffuslarning uzoqligi o'quvchilarning ijtimoiy moslashishi va dam olishiga ko'proq imkoniyat yaratishga qaratilgan.

O'zbekiston va Turkiya ta'lim tizimlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonlari o'xshash bo'lsa-da, ularning tashkiliy tuzilishi va saralash bosqichlarida o'ziga xos farqlar mavjud.

1. O'zbekistonda pedagoglar tayyorlash. O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari asosan pedagogika yo'nalishidagi universitetlar va institutlarda tayyorlanadi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Ta'lim darajasi: Bakalavriat (4 yil kunduzgi, 5 yil sirtqi). Shuningdek, magistratura (2 yil) ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish istagidagilar uchun mavjud.

O'quv dasturi: Dasturda umumiy fanlar, pedagogika, psixologiya va fanlarni o'qitish metodikasi (matematika, ona tili, tabiatshunoslik va h.k.) o'rin olgan.

Amaliyot: Talabalar o'qish davomida maktablarda malakaviy amaliyot o'taydilar. So'nggi yillarda "4+2" tizimi joriy etilmoqda (4 kun o'qish, 2 kun maktabda amaliyot).

Ishga joylashish: Bitiruvchilar Milliy kadrlar zaxirasi yoki bevosita maktab ma'muriyati bilan kelishuv asosida ishga kirishlari mumkin.

2. Turkiyada pedagoglar tayyorlash

Turkiya pedagogika sohasida markazlashgan va qat'iy nazorat qilinadigan tizimga ega.

Ta'lim darajasi: Barcha boshlang'ich sinf o'qituvchilari (Sınıf Öğretmenliği) 4 yillik bakalavr darajasiga ega bo'lishlari shart.

YÖK nazorati: Oliy ta'lim kengashi (YÖK) barcha universitetlar uchun yagona o'quv standartlarini belgilaydi.

KPSS imtihoni: Bu Turkiya tizimining eng muhim qismi. Universitetni bitirgan har bir nomzod davlat maktabida dars berish uchun KPSS (Kamu Personeli Seçme Sınavı) imtihonidan o'tishi shart. Ushbu imtihon umumiy bilim va pedagogik mahoratni sinaydi.

Amaliyot: "Okul Deneyimi" (Maktab tajribasi) va "Öğretmenlik Uygulaması" (O'qituvchilik amaliyoti) fanlari orqali talabalar real maktab muhitiga tayyorlanadi.

Muhim farqlar

Turkiyada o'qituvchi bo'lish uchun raqobat juda yuqori va KPSS imtihoni saralashda asosiy filtr vazifasini o'taydi. O'zbekistonda esa so'nggi yillarda o'qituvchilarning kasbiy standartlarini oshirish maqsadida milliy sertifikatlash tizimi joriy qilinmoqda. Bu tizim o'qituvchining o'z fanini bilish darajasiga qarab ish haqiga ustama olish imkonini beradi.

Jumladan O'zbekistonda 1-sinflarni maktabga qabul qilishda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lim vazirining quyidagi buyrug'i tasdiqlandi.

2026-2027-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfiga qabul jarayonlarini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 295-son qaroriga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfiga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatini joriy etish maqsadida buyuraman:

2026-2027-o'quv yilida 1-sinfga qabul qilish bo'yicha davlat xizmati orqali amalga oshiriladigan tuman (shahar)lar soni 64 tadan 135 taga, umumiy o'rta ta'lim maktablari soni 1956 tadan 5689 taga ortganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2026-2027-o'quv yilida davlat umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfiga qabul bo'yicha davlat xizmati joriy etiladigan tuman (shahar)lar ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo'yilsinki: 2026-2027-o'quv yilida 1-sinfga qabul qilish bo'yicha davlat xizmati Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) yoki Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining elektron davlat xizmatlari portali (my.maktab.uz) orqali 2026-



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

yilning 20-iyunidan – 31-iyuliga qadar biriktirilgan mikrohudud doirasida hamda 1-31-avgustga qadar mikrohududdan tashqari hududlardan amalga oshiriladi;

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan (2026-2027-o'quv yilida 2019-yilning 31-dekabr kunigacha tug'ilgan) yilda qabul qilinadi;

Davlat xizmati joriy etilmagan tumanlardagi umumiy o'rta ta'lim maktablariga 1-sinfga qabul jarayonlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarorida belgilangan tartibda umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi (keyingi o'rinlarda – an'anaviy shaklda) hamda maktabga qabul qilingan o'quvchilar vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritiladi, qabul jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida bolalarni 1-sinfga qabul qilish bo'yicha ma'lumotlar (qabul rejasi, qabul vaqtlari, biriktirilgan mikrohudud, davlat tilidan boshqa til bo'yicha sinflar tanlangan taqdirda, bolaning boshlang'ich so'zlashuv ko'nikmasini baholash bo'yicha savolnoma) maktab binosining barcha uchun ko'rinarli joyiga osib qo'yiladi; 1-sinfga o'quvchilarni onlayn qabul qilish – my.maktab.uz" elektron platformasini takomillashtirish va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, shuningdek, yangi qo'shilgan hududlardagi qabul jarayonlari bilan bog'liq ma'lumotlarni boshqa vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiyani ta'minlasin; qabul jarayonlarini tizimli tashkil etish hamda foydalanuvchilarni texnik qo'llab-quvvatlash maqsadida call-markaz hamda texnik xodimlar guruhlarini tashkil qilish; elektron platformadan foydalanish bo'yicha tizim foydalanuvchilari, jumladan, elektron qabul jarayonlariga yangi qo'shilgan maktablarning mas'ul xodimlari uchun o'quv seminarlari o'tkazish, tizimdan foydalanish bo'yicha qo'llanmalar (videorolik, taqdimot, yo'riqnoma) tayyorlash vazifalari yuklatilsin.

2026-yil 10-avgustga qadar 2026-2027-o'quv yilida 1-sinfga qabul qilingan va vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz) ga kiritilgan bolalar soni bo'yicha 12 nomdagi o'quv qurollaridan iborat Prezident sovg'alarini tuman (shahar) maktabgacha va amaktab ta'limi bo'limlariga ro'liq yetkazilishini;

2026-yil 20-avgustga qadar 1-sinfga qabul qilingan bolalar uchun 12 nomdagi o'quv qurollaridan iborat Prezident sovg'alarini vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritilgan bolalar soniga mos ravishda umumiy o'rta ta'lim maktablariga tarqatilishini ta'minlansin. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari SH. Karimov zimmasiga yuklatilsin.

O'zbekiston va Turkiya boshlang'ich ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos tajribaga ega. Har ikki davlat ham imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim maktablarida tengdoshlari bilan birga bilim olishlarini ta'minlashga intilmoqda.

"Inklyuziv ta'lim- barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir".

1. Qonunchilik va Davlat Siyosati



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

O'zbekiston: So'nggi yillarda "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi. 2020-yil 19- may kuni O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ilk bor inklyuziv ta'limga huquqiy maqom berdi.

Turkiya: Turkiyada bu jarayon birmuncha avvalroq boshlangan. 573-sonli "Maxsus ta'lim to'g'risida"gi qonun kuchiga ega farmon (KHK/573) asosida inklyuziv ta'lim (turk tilida Kaynaştırma eğitimi) tizimli ravishda 1997-yil 6-iyunda yo'lga qo'yilgan.

2. Amaliyotdagi farq va o'xshashliklar.

Xususiyatlari	O'zbekiston	Turkiya
Atama	Inklyuziv ta'lim	Kaynaştırma / Bütünleştirme
Qamrov	Maktablarda maxsus inklyuziv sunflar ochilmoqda.	Asosan umumiy sinflarda "to'liq vaqtli" integratsiya qilinadi.
O'quv rejasi	Moslashtirilgan o'quv rejalari joriy etilmoqda.	BEP (Bireyselleştirilmiş Eğitim Programı) — Shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturi qo'llaniladi.

3. Ta'lim Metodologiyasi

O'zbekistonda: Boshlang'ich sinflarda inklyuzivlikni ta'minlash uchun maktablarda "Resurs xonalari" tashkil etilmoqda. O'qituvchi yordamchisi (tutor) institutini rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda.

Turkiyada: "Resurs xonasi" (Destek Eğitim Odası) amaliyoti juda keng tarqalgan. Imkoniyati cheklangan o'quvchi ayrim qiyin fanlardan (masalan, matematika) ushbu xonada maxsus o'qituvchi bilan alohida shug'ullanadi, qolgan vaqtda esa o'z sinfi bilan birga bo'ladi.

4. Asosiy Muammolar va Rivojlanish Yo'nalishlari

Har ikki davlatda ham quyidagi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda:

Infrastruktura: Maktab binolarini (panduslar, maxsus jihozlar) to'liq moslashtirish.

Kadrlar tayyorlash: Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv bolalar bilan ishlash bo'yicha malakasini oshirish.

Ijtimoiy qabul: Jamiyatda va ota-onalar orasida inklyuziv ta'limga nisbatan ijobiy qarashni shakllantirish.

1. Tadqiqotdagi asosiy muammo

Maqolada ko'tarilgan markaziy muammo — boshlang'ich ta'limda inklyuzivlikni (imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta'limga jalb qilish) ta'minlashning metodik va amaliy jihatdan hali to'liq shakllanmaganligidir.

Xususan:

Tizimdagi farqlar: O'zbekistonda inklyuziv ta'lim endi rivojlanish bosqichida (maxsus sinflar ochilmoqda), Turkiyada esa bu tizim ancha oldin (1997-yildan) yo'lga qo'yilgan va integratsiya darajasi yuqori.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Kadrlar tayyorlash: Har ikki davlatda ham pedagoglarni inklyuziv ta'limga tayyorlashning o'ziga xos qiyinchiliklari va metodik bo'shliqlari mavjud.

Moslashuv: O'quv rejalari va darsliklarni har bir bolaning ehtiyojiga moslashtirish (individual ta'lim dasturlari — BEP) masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

2. Xulosa

Maqola tahlilidan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Tizimli islohotlar: O'zbekiston so'nggi yillarda qonunchilik bazasini mustahkamladi (Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va 2020-2025 yillarga mo'ljallangan konsepsiya), biroq amaliyotda Turkiyadagi "Kaynaştırma" (uyg'unlashtirish) tajribasidan o'rganish kerak bo'lgan jihatlarimiz ko'p.

O'qituvchi maqomi: Turkiyada o'qituvchilikka qabul qilish (KPSS imtihoni orqali) va pedagogik amaliyot (Okul Deneyimi) tizimi juda qat'iy yo'lga qo'yilgan, bu esa ta'lim sifatini kafolatlaydi.

Inklyuzivlik — huquqiy majburiyat: Har ikki davlatda ham inklyuziv ta'lim nafaqat ijtimoiy yordam, balki bolalarning teng huquqliligini ta'minlovchi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida ko'rilmogda.

3. Takliflar

Metodik takliflar:

Individual dasturlarni joriy etish: Turkiyadagi BEP (Bireyselleştirilmiş Eğitim Programı) tajribasini O'zbekiston maktablarida har bir imkoniyati cheklangan bola uchun majburiy etib belgilash.

Tyutorlik tizimi: O'zbekistonda ham inklyuziv sinflarda o'qituvchi yordamchisi (tyutor/shadow teacher) shtatlarini ko'paytirish.

Tashkiliy takliflar:

Raqamli integratsiya: O'zbekistondagi my.maktab.uz tizimiga inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar uchun alohida metodik resurslar va monitoring bo'limini qo'shish.

Moddiy-texnik baza: Maktab binolarini nafaqat "to'siqsiz muhit" (panduslar), balki dars jarayonida kerak bo'ladigan maxsus ko'rgazmali qurollar bilan ham to'liq ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, 2020.

2.O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari, 2023.

3.O'zbekiston Respublikasi Milliy o'quv dasturi, 2023.

4 Vazirlar Mahkamasining 9.03.2020 yildagi «Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 132-son qarori.

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

6. Temel Eğitim Programları. T.C.Milli Eğitim Bakanlığı, 2020.
7. O'zbekiston bo'yicha normativ-huquqiy manbalar
8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida".
9. Turkiya bo'yicha manbalar (Turk tilida)
10. Özel Eğitim Hakkında Kanun Hükmünde Kararname (KHK/573). (1997). Turkiya maxsus ta'limining huquqiy asosi.
11. Milli Eğitim Bakanlığı (MEB). *Özel Eğitim Hizmetleri Yönetmeliği.* (2018). Inklyuziv ta'lim (Kaynaştırma) qoidalari.
12. Bireyselleştirilmiş Eğitim Programı (BEP) Hazırlama Kılavuzu. (MEB Yayınları). Shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturini tuzish bo'yicha qo'llanma.
13. Musharraf, A. (2023). BOSHLANGAN SINF O'QUVCHILARIGA SO'ZLAR MANOSINI TUSHINTISH METODIKASI. Ustozlar uchun , 24 (3), 10-13.
14. Abdulxayeva, M. U. (2024). TIL VA NUTQ HAQIDA OLIMLARNING FIKRLARI. Экономика и социум, (5-1 (120)), 32-35.
15. Abdulxayeva, M., & Mukhtaram, I. (2024, may). ERTAKLARI-AJODALARIMIZNING TA'LIMLARI VA NASILLARI. Xalqaro global konferensiyada (1-jild, 7-son, 125-128-betlar).
16. Abdulxayeva, M. va Umidaxon, M. (2024, may). BOSHLANGICH SINFLARDA XALQ OG'ZIQ IJODINING AHAMIYATI. Xalqaro global konferensiyada (1-jild, 7-son, 129-132-betlar).
17. Abdulxayeva, M., & Gulchiroy, M. (2024, May). IKKI NUQTA VA UNING QO'LLANILISH O'RINLARI. In International Global Conference (Vol. 1, No. 7, pp. 66-68).
18. Abdulxayeva, M., & Umidaxon, A. (2024, May). BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. In International Global Conference (Vol. 1, No. 7, pp. 69-74).
19. Umidaxon, A. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILIMLARINI BAHOLASHDA MANTIQUIY MASALALARNING O'RNI. Ustozlar uchun, 24(3), 17-24.
20. Musharraf, S. M. K. A., & Baydemir, H. (2024, May). VERGUL VA UNING USTIDA MASHQLAR. In International Global Conference (Vol. 1, No. 7, pp. 121-124).
21. Musharraf, A. (2023). ONA TILI VA O'QISH SAODATI DARSLARIDA DIDAKTIK USULLARNING O'RNI. Ochiq kirish ombori , 9 (11), 105-108.
22. Musharraf, A. (2023). BOSHLANGANCHI SINFLARDA TURLI USULLARDAN FOYDALANGAN DIKTATLAR OLISH METODIKASI. Galaxy xalqaro fanlararo tadqiqot jurnali , 11 (11), 887-891.
23. Абдулхаева, М., & Эргашалиева, С. (2023). РОЛЬ «УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК» НА УЧЕБНЫХ УРОКАХ. Talqin va tadqiqotlar, 1(20).
24. Abdulhayeva, M. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

25. Musharraf, A. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. Open Access Repository, 9(6), 211-216.
26. Abdulxayeva, M. (2023). AKTdan foydalangan holda diktant olish metodikasi. Scienceweb academic papers collection.
27. Abdulxayeva, M. (2023). O'Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. Interpretation and researches, 1(1).
28. Mirhojiddinovna, JD, Shavkatovna, AM, & Alijonovna, MD (2022). Badiiy matnlardagi noan'anaviy birikmalar va qishloq xo'jaligi atamalarining lingupoetik xususiyatlari. Pozitiv maktab psixologiyasi jurnali , 6 (11), 1599-1604.
29. Abdulxayeva, M. Birinchi sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda diktantning o'рни. Fan, muhandislik va texnologiya sohasida innovatsion tadqiqotlar xalqaro jurnali .
30. Musharrafa, A. va Nozima, NM (2023). Ona tili va o'qish savodxonligining tabiatshunoslik bilan aloqasi.
31. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O 'RNI. Scienceweb academic papers collection.